

**IQTISODIY VA MOLİYAVIY JINOYATLARNI SODIR ETGANLIK
UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI**

Ismoilov Muhammadqodir Ulug‘bek o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlarning mohiyati, ularning jamiyat va davlat iqtisodiy xavfsizligiga ta’siri, shuningdek, bu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari keng yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari asosida iqtisodiy jinoyatlarning huquqiy asoslari, O‘zbekistonda jinoyatlarning holati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida statistik ma’lumotlardan foydalanib, iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy jinoyatlar, javobgarlik, Jinoyat kodeksi, huquqbuzarlik, moliyaviy nazorat, jazo, bazaviy hisoblash miqdori.

**ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА СОВЕРШЕНИЕ
ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ФИНАНСОВЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ**

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность экономических и финансовых преступлений, их влияние на экономическую безопасность общества и государства, а также вопросы ответственности за данные виды преступлений. На основе соответствующих статей Уголовного кодекса Республики Узбекистан анализируются правовые основы экономических преступлений и состояние преступности в Узбекистане. В ходе исследования с использованием статистических данных разработаны выводы, направленные на предупреждение экономических преступлений.

Ключевые слова: экономические преступления, ответственность, Уголовный кодекс, правонарушение, финансовый контроль, наказание, базовая расчетная величина.



ISSUES OF LIABILITY FOR COMMITTING ECONOMIC AND FINANCIAL CRIMES

Abstract: *This article discusses the essence of economic and financial crimes, their impact on the economic security of society and the state, as well as the issues of responsibility of these types of crimes. Based on the relevant articles of the Criminal code of the Republic of Uzbekistan, the legal basis of economic crimes and the state of crimes in Uzbekistan are analyzed. During the study, conclusions aimed at preventing economic crimes were developed using statistical data.*

Keywords: *economic crimes, liability, Criminal code, offense, financial control, punishment, basic calculation value.*

Kirish

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy jinoyatlar, xususan soliqqa oid huquqbuzarliklar, byudjet mablag'larini talon-toroj qilish, korrupsiya, firibgarlik va noqonuniy daromadlarni yuvish kabi jinoyatlar iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Bunday jinoyatlar natijasida davlat byudjeti daromadlari kamayadi, investitsion muhit yomonlashadi va tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi pasayadi. Shu sababli iqtisodiy jinoyatlar uchun javobgarlik tizimini takomillashtirish, ularning oldini olish hamda aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish masalasi O'zbekistonda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha ilmiy izlanishlar ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan. A. Azizxo'jayev o'z tadqiqotlarida iqtisodiy jinoyatlar iqtisodiy xavfsizlikka bevosita tahdid soluvchi omil ekanini ta'kidlab, ularning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish zarurligini qayd etgan[1]. Shuningdek, tadqiqotchi Yo'ldoshev B. iqtisodiy jinoyatlarning sabablari sifatida moliyaviy nazorat tizimining zaifligini va iqtisodiy madaniyatning yetarli emasligini keltiradi[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda huquqiy va statistik tahlil metodlardan foydalanildi. Huquqiy tahlil orqali O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining iqtisodiy jinoyatlarga oid normalari o'rganildi. Statistik tahlil asosida esa 2022–2024-yillar davomida aniqlangan iqtisodiy jinoyatlar soni, ularning dinamikasi va iqtisodiyotga yetkazgan zarari tahlil qilindi.

Tadqiqot va natijalar.

Iqtisodiy jinoyatchilik bugungi kunda har qanday davlat va jamiyat uchun katta xavf hisoblanadi. U milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, davlat byudjeti daromadlarini kamaytiradi, investitsiyalar oqimini to'sadi va ijtimoiy-iqtisodiy sohada muammolarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy jinoyatlar turli shakllarda sodir etiladi va ularning asosiy maqsadi moliyaviy foyda olishdir. Shu bois iqtisodiy jinoyatchilikning oldini olish, ularni aniqlash va sodir etgan shaxslarga qonuniy choralar ko'rish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Iqtisodiy jinoyatlar - milliy iqtisodiyotga, uning tarmoqlari yoki sohalariga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan va qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Bunday jinoyatlarning sodir etilishi natijasida jamiyat, jamoat birlashmalari yoki ayrim fuqarolarga moddiy ziyon yetkaziladi, jamiyatning iqtisodiy negizlariga tajovuz qilinadi[3]. Iqtisodiy jinoyatlar - bu mulkiy yoki ishlab chiqarish munosabatlariga, shuningdek, shaxs, guruh yoki tashkilotning iqtisodiy huquqlariga ta'sir qiluvchi jinoiy huquqbuzarliklarning alohida toifasi. Bugungi kunda bunday huquqbuzarliklarning ko'plab turlari mavjud. Ammo nisbatan og'ir jazolar - jarimadan tortib ozodlikdan mahrum qilishgacha bo'lgan jazolarga qaramay, jinoyatchilar o'zlarini noqonuniy ravishda boyitish va foyda olish uchun yangi bo'shliqlarni topishning yangi usullarini o'ylab topishda davom etmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat to'g'risidagi qonunchiligi Konstitutsiya va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalariga asoslangan bo'lib, Jinoyat Kodeksdan iboratdir.



Iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlarning asosiy turlari va ularning Jinoyat kodeksi bilan belgilangan javobgarligi[4]:

O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish(167-modda) - bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Firibgarlik(168-modda) - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash(184-modda). Foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko‘rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki yig‘imlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin ro‘y bergan bo‘lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Budjet va smeta-shtat intizomini buzish(184¹-modda). Moliya yilida budjet va smeta-shtat intizomini buzish ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.


Pul mablag‘larini va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat(188¹-modda.). Mulkiy manfaat berish bo‘yicha zimmaga majburiyat olish yo‘li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini va (yoki) boshqa mol-mulkini jalb etishga doir noqonuniy faoliyatni amalga oshirish va bunda ilgari olingan majburiyatni jismoniy va yuridik shaxslarning yangi jalb etilgan pul mablag‘lari va (yoki) boshqa mol-mulki hisobidan bajarish, shuningdek bunday faoliyatga rahbarlik qilish hamda shunday faoliyat ko‘rsatilishini ta‘minlash, xuddi shuningdek mazkur faoliyatda ishtirok etishga jalb qilish maqsadida ushbu faoliyatni



reklama qilish, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmogʻidan foydalangan holda reklama qilish — *bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.*


Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xoʻjalik faoliyatini taftish qilishni belgilangan tartibda amalga oshirmaslik uchun ham javobgarlik masalasi ushbu kodeksning 192²-moddasida keltirilgan. Unga koʻra, **tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishning va moliya-xoʻjalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzish**, xuddi shuningdek tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va (yoki) oʻtkazish, shunday harakatlar uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan keyin sodir etilgan boʻlsa, bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda sodir etilayotgan jinoyatlar soni keskin oshib bormoqda. Uni oldini olish uchun davlat organlari kurash olib bormoqda. Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotiga koʻra 2024-yil 2023-yilga nisbatan iqtisodiy jinoyatlar 48%ga , firibgarlik jinoyatlari 58%ga oshgan[5].



1-rasm. O‘zbekistonda 2019-2025 yillarda ro‘yxatga olingan iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar soni¹

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida respublikada jami qayd etilgan jinoyatlar soni 132 298 tani tashkil etdi. Bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 27.1 %ga ko‘p.



2-rasm. O‘zbekistonda sodir etilgan jinoyatlar (yo‘nalishlari, 2024-yil, foizda)²

Ko‘rib chiqilayotgan davrda har 10 ming aholiga 35.6 jinoyat to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2023-yilning mos davrida 28.3 tani tashkil etgan. O‘tgan yil yakunlariga

¹ O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2024-yil.

² <https://oz.sputniknews.uz/20250305/ozbekiston-jinoyatlar-infografika-48259682.html>



ko'ra, O'zbekistonda eng ko'p qayd etilgan jinoyatlar iqtisodiyot sohasida sodir etilgan – 62.9%[6].

2024-yilda aniqlangan jinoyatlarning qariyb 60 foizi davlat korxonalarida yoki davlat ishtirokidagi tashkilotlarda sodir etilgan [5]. Ayrim hollarda jinoyatlar elektron to'lov tizimlari, "bir kunlik firmalar" yoki soxta shartnomalar orqali amalga oshirilgan. Bu esa moliyaviy nazorat tizimining yetarlicha samarali emasligini ko'rsatadi.

Tahlillar natijasida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi:

1. Iqtisodiy jinoyatlar asosan davlat sektorida yoki davlat ishtirokidagi korxonalarda sodir etilmoqda.
2. Jinoyatlarning yarmi hujjatlashtirish va buxgalteriya tizimining kamchiliklaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.
3. Moliyaviy nazorat organlari o'rtasida ma'lumot almashish sustligi jinoyatlarni kech aniqlanishiga olib kelmoqda.
4. Qonunchilikda mavjud ayrim huquqiy bo'shliqlar (masalan, iqtisodiy zarar miqdoriga nisbatan jarimalarning mutanosib emasligi) jinoyatchilar tomonidan suiiste'mol qilinmoqda.

Shuningdek, iqtisodiy jinoyatlarning yangi turlariga ham e'tibor qaratish lozim. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda **kiberjinoyatlar, onlayn to'lov tizimlari orqali firibgarlik, kriptovalyuta bilan bog'liq noqonuniy operatsiyalar** kabi yangi shakllar paydo bo'lmoqda[7]. Bunday jinoyatlarni tergov qilish uchun an'anaviy usullar yetarli emas, shu sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Iqtisodiy jinoyatlarning kelib chiqish sabablari orasida quyidagilar hisoblanadi: iqtisodiy nazorat tizimining zaifligi, moliyaviy axborotlarning shaffof emasligi, soliqqa oid ma'lumotlar bazasining integratsiyalanmaganligi, korrupsion holatlar va aholining moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi. Shu bois, iqtisodiy jinoyatlar bilan kurashishda jazolash chorasidan ko'ra, profilaktika qilish samaraliroq natija beradi.

Xulosa



Iqtisodiy jinoyatlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va moliyaviy barqarorligiga bevosita xavf tug'diruvchi omil hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jinoyatlar uchun javobgarlik tizimini yanada takomillashtirish, ularning oldini olish va tergov qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Birinchidan, soliqqa oid jinoyatlar uchun jarima miqdorlarini yetkazilgan zarar hajmiga mutanosib ravishda belgilash maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, davlat moliyaviy nazorat organlari o'rtasida yagona elektron ma'lumot almashish platformasini yaratish orqali shubhali moliyaviy operatsiyalarni tezda aniqlash mumkin. Uchinchidan, iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilishda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish zarur. To'rtinchidan, iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish uchun aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish va profilaktika ishlarini olib borish lozim.

Shu yo'l bilan O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, korrupsiya va moliyaviy jinoyatlar ko'lamini kamaytirish, shuningdek, moliyaviy tizimda shaffoflikni ta'minlashga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jayev A. *Iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishning huquqiy mexanizmlari*. – Toshkent, 2020.
2. Yo'ldoshev B., *Moliyaviy nazorat va iqtisodiy xavfsizlik masalalari*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
5. O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024-yil.
6. <https://oz.sputniknews.uz/20250305/ozbekiston-jinoyatlar-infografika-48259682.html>
7. O'zbekiston Respublikasi IIV ma'lumot markazi statistik tahlili, 2024-yil.